“Fizika-2022” xalqaro forumi - ilmiy yuksalish poydevori

Namangan shahrida O’zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan davlat universiteti hamkorlikda “Farg’ona vodiysida fizika ilm-fanining bugungi kuni va yangi yo’nalishlarini rivojlantirish istiqbollari” muhokamasiga bag’ishlangan “Fizika - 2022” II Xalqaro Forumi o’tkazildi.







Ushbu forumda respublikamiz hamda xorijiy davlatlarning akademiklar, professorlar, fizika fani bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan 200 dan ortiq ilm-fan namoyondalari o'zlarining yangi tadqiqotlari, fizika sohasidagi izlanishlariga doir ma'ruzalar bilan ishtirok etishdi. Ushbu forum ilmiy izlanishlar yo'lida hamkorlikning rivojiga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Forum doirasida Namangan muhandislik-texnologiya instituti hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro-fizika instituti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.



Shartnomaga ko'ra, ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini birgalikda o'rganish va yana boshqa bir qancha loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Forum doirasidagi asosiy tadbirlarda "Farg'ona vodiysida fizika ilm fanining bugungi kuni va yangi yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollari" faol muhokama qilinib, olib borilayotgan ilmiy tadqiqod ishlarining samaralari, taklif etilayotgan loyihalarning mazmun-mohiyatiga ilm-fan vakillarining e'tiborini qaratish orqali mavjud muammolarga ilmiy tomondan yechim topish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

